

TEMIR YO‘L TRANSPORTINING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI: TAHLIL VA BAHOLASH

Raximov Xasan Shukurjonovich

University of Business and Science

“Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.d., PhD

ORCID: 0009-0003-3981-4626

E-mail: hasanboyrahimov1990@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada temir yo‘l transportining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida transport xizmatlarining samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Transport xizmatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Maqolada xalqaro va mahalliy tajribalarning muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, temir yo‘l transportining yuk va yo‘lovchi tashish hajmi, daromadlar o‘sishi va xarajatlarning rentabelligi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar keltirilgan. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmat sifatini oshirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Xalqaro va mahalliy tajriba asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transport tizimi, iqtisodiy samaradorlik, logistika, ekologik barqarorlik, yuk tashish hajmi, xizmat sifati, transport infratuzilmasi.

Аннотация

В данной статье анализируются экономические показатели железнодорожного транспорта и рассматриваются вопросы повышения эффективности транспортных услуг в условиях Узбекистана. Изучаются меры, направленные на повышение эффективности транспортных услуг. В статье рассматриваются важные аспекты международного и отечественного опыта. Также приводятся статистические данные по объемам грузовых и пассажирских перевозок железнодорожного транспорта, росту доходов и эффективности затрат. Выделяются приоритетные направления государственной политики по модернизации транспортной инфраструктуры и повышению качества услуг. На основе международного и отечественного опыта разрабатываются предложения и рекомендации, направленные на повышение экономической эффективности.

Ключевые слова: железнодорожная транспортная система, экономическая эффективность, логистика, экологическая устойчивость, объем грузоперевозок, качество обслуживания, транспортная инфраструктура.

Abstract

This article analyzes the economic indicators of railway transport and considers issues of increasing the efficiency of transport services in the conditions of Uzbekistan. Measures aimed at increasing the efficiency of transport services are studied. The article considers important aspects of international and local experiences. It also presents statistical data on the volume of freight and passenger transportation of railway transport, revenue growth and cost efficiency. It highlights the priority areas of state policy for the modernization of transport infrastructure and improving the

quality of services. Based on international and local experience, proposals and recommendations aimed at increasing economic efficiency are developed.

Keywords: railway transport system, economic efficiency, logistics, environmental sustainability, cargo transportation volume, service quality, transport infrastructure.

KIRISH

Temir yo‘l transporti milliy iqtisodiyotning eng muhim infratuzilma tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlarini taqdim etadi, balki iqtisodiy rivojlanishning drayveri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Transport sohasining samaradorligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, mintaqaviy integratsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda katta rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida¹ keltirilganidek: “Transport tizimini rivojlantirishda asosiy e‘tibor zamonaviy transport infratuzilmasini shakllantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Ushbu maqsadlar transport xizmatlarining raqobatbardoshligini ta‘minlash va xalqaro transport bozorida ishonchli pozitsiyaga ega bo‘lish uchun muhimdir” [1]. Ushbu strategiya doirasida temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish, elektrlashtirilgan yo‘llar ulushini oshirish, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish va xizmat sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, temir yo‘l transportining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va ularni rivojlantirish yo‘llarini izlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Мазкур тадқиқотда temir yo‘l transport tizimini takomillashtirishning milliy iqtisodiyot uchun dolzarb va strategik ahamiyatini ochib beradi. Xususan, iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalarni aniqlanadi. Shu bilan birga, resurslardan oqilona foydalanish, logistika va texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali tizimning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Temir yo‘l transportining samaradorligini baholovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rganishga doir ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Temir yo‘l transporti sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan xalqaro tadqiqotlar transport tizimlarini optimallashtirish, yashil texnologiyalarni joriy qilish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda olib borilgan. Xususan, Maykl Porter “Transport infratuzilmasining raqobatbardoshlikka ta‘siri” nomli tadqiqotida transport tizimlarining iqtisodiyotga bo‘lgan ijobiy ta‘sirini tahlil qilgan. U transport xizmatlari sifatining yaxshilanishi va infratuzilma rivoji eksport hajmini oshirishda muhim omil ekanini ta‘kidlaydi [2]. Peter Drucker “Innovatsion boshqaruv tizimlari va transport

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

infratuzilmasi” nomli tadqiqotida logistika tizimlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini o‘rgangan. Uning fikricha, raqamli boshqaruv texnologiyalari transport jarayonlarini 20–25 % ga samaraliroq qilish imkonini beradi [3]. Marie-Christine Cormier “Logistika tarmoqlarining ekologik samaradorligi” nomli ilmiy ishida yashil transport texnologiyalarini joriy qilish orqali ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Cormier yashil logistika tizimlarining uzoq muddatda iqtisodiy foydasini asoslab bergan [4]. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, transport tizimlarining raqamlashtirilishi, ekologik texnologiyalarning joriy qilinishi va xalqaro transport yo‘llarining rivoji iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog‘iston va boshqa MDH davlatlari temir yo‘l transporti tizimining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda ularni baholash bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar. V.N. Grachev o‘zining “Transport xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar” nomli tadqiqotida transport xizmatlarining tannarxini kamaytirish va logistika jarayonlarini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni taklif qiladi. U avtomatlashtirishning ijobiy ta‘sirini 25–30 % darajasida baholagan [5]. T.K.Bazarbayev “Qozog‘istonning temir yo‘l transportida raqamli innovatsiyalarni joriy qilish” nomli ilmiy ishida raqamli boshqaruv tizimlari va smart-logistika texnologiyalarini tatbiq etish orqali temir yo‘l xizmatlari sifatini oshirishni o‘rgangan. U, xususan, yo‘lovchi tashish xizmatlarida mijozga yo‘naltirilgan raqamli yechimlarning ahamiyatini ta’kidlaydi [6].

Mahalliy tadqiqotchilar, masalan, temir yo‘l transportining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganishda qator muhim tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Abdullayev A.B. “Transport tizimida raqamli transformatsiya va uning iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri” nomli tadqiqotida temir yo‘l transportida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali xizmat sifatini oshirish va tannarxni kamaytirish yo‘llarini o‘rgangan. U raqamli boshqaruv tizimlari va sun‘iy intellektdan foydalanish natijasida iqtisodiy samaradorlikning 15–20 % ga oshishini ta’kidlagan [7]. N.X. Ismoilov “Temir yo‘l transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilishning iqtisodiy samaralari” nomli tadqiqotida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatgan. U, ayniqsa, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik masalalariga alohida e‘tibor qaratadi [8]. Mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston temir yo‘l transportining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xizmat sifatini yaxshilash va xalqaro transport integratsiyasini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardir.

Olimlarning ishlarini o‘rgangan holda o‘zimizning quyidagi fikrlar keltirib o‘tiladi:

- Temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni keng joriy qilish va raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish zarurligi.

- Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali mintaqaviy logistika markazlarini tashkil etish va ularni samarali boshqarish lozimligi.
- Mahalliy sharoitlarga moslashgan yashil transport texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash choralari ko'rilishi kerak.
- O'zbekistonda transport xarajatlarini kamaytirish va xizmat sifatini oshirish uchun logistik infratuzilmaga innovatsion yechimlarni tatbiq etish zarurligi ushbu masalalarni hal etish tadqiqotimizning oldida turgan asosiy vazifalarimiz ekanligidan dalolat beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy samaradorlik — bu iqtisodiyotda resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlovchi asosiy tushunchadir. Ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali mavjud infratuzilmaning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar aniqlanadi. Bu, o'z navbatida, energiya va kapital kabi cheklangan resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Tahlil natijalari transport tizimiga zamonaviy texnologiyalarni kiritish uchun asos bo'lishi, elektrlashtirilgan yo'llar ulushini oshirish yoki raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish ekologik mezonlarni inobatga olish va yashil transport texnologiyalarini rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. Ko'rsatkichlar asosida tizimning iqtisodiy samaradorligi oshirilganda, investorlar uchun yanada jozibador bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish temir yo'l transporti sohasida strategik rejalar va dasturlarni ishlab chiqishda mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar

[9]

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Tavsifi
1.	Tashish hajmi va daromadi	Tashilgan yuklar va yo'lovchilardan olingan daromadlar natijasida foyda darajasi
2.	Energiya samaradorligi	Elektrlashtirilgan yo'llar ulushi va energiya sarfi
3.	Kapital samaradorligi	Transport infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar va undan olingan foyda nisbati
4.	Ishlab chiqarish samaradorligi	Temir yo'l tizimida ishlovchilarning samaradorligi va jarayonning avtomatlashtirilganlik darajasi

Temir yo'l transporti tizimida iqtisodiy samaradorlik transport xizmatlari orqali yaratilgan iqtisodiy foyda va resurslardan foydalanish natijalarini o'zaro taqqoslash orqali aniqlanadi. Ushbu tushuncha o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Iqtisodiy foyda: temir yo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish orqali olingan sof iqtisodiy daromad.

Samaradorlik mezonlari: tashiladigan yuklar tannarxi, yo‘lovchi tashish xarajatlari va xizmatlar sifati kabi omillar.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, iqtisodiy samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlarini tizimli o‘rganish mamlakatimiz temir yo‘l transport tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasidagi temir yo‘l transport tizimining 2015–2023 yillar holati tahlili [10]

Asosiy ko‘rsatkichlar	2015-yil	2018-yil	2021-yil	2023-yil
Yuk tashish hajmi (mln. tonna)	67,2	68,4	72,0	73,7
Yo‘lovchi tashish hajmi (mln. kishi)	7,2	6,4	8,1	9,7
Transport xizmatlari daromadi (mlrd. so‘m)	1200	1600	2100	2700
Tizimdagi energiya iste‘moli (ming ton yoqilg‘i ekvivalentida)	850	820	780	700
Texnologik uskunalar yangilanishi (%)	15	30	50	70
Logistika jarayonlarining avtomatlashtirish darajasi (%)	10	25	45	65

2-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, 2023-yilda temir yo‘l orqali 73,7 million tonna yuk tashilgan, bu 2022-yilga nisbatan 100,3 % o‘shishni tashkil etadi. 2023-yilda temir yo‘l transporti xizmatidan 9,7 million yo‘lovchi foydalangan, bu 2022-yilga nisbatan 694,7 ming kishiga ko‘pdir. 2023-yilda temir yo‘l transporti xizmatlaridan 10,6 trillion so‘m daromad olingan, bu 2022-yilga nisbatan 12 % o‘shishni ko‘rsatadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, temir yo‘l tarmog‘ining elektrlashtirilgan yo‘llar ulushi 35,2 % ni tashkil etgan.

Respublika bo‘yicha umumiy iqtisodiy samaradorlik 2015-yildan 2023-yilgacha davrda barqarorlikni saqlagan bo‘lsa-da, ayrim yillarda o‘zgarish kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda yuqori ko‘rsatkichga (115,7) erishilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich nisbatan pasaygan (107,2). Qoraqalpog‘iston Respublikasi 2015-yildan 2021-yilgacha iqtisodiy samaradorlikning yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyish etgan, ammo 2023-yilda sezilarli pasayish kuzatilgan (102,9). Andijon va Namangan viloyatlari barqaror o‘shish sur‘atlarini saqlab qolgan, xususan, Namangan viloyatida 2023-yilda iqtisodiy samaradorlik eng yuqori ko‘rsatkichga (114,3) erishgan. Toshkent shahri o‘zining barqaror rivojlanishi bilan ajralib turadi. Xususan, 2023-yilda bu hududning ko‘rsatkichi 116,3 ga yetgan bo‘lib, bu boshqa hududlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichdir(3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasidagi transport xizmatlarning 2015-2023 yillar bo‘yicha o‘zgarish sur‘atlari (oldingi yilga nisbatan, foizda) [11]

Hududlar	2015	2018	2021	2023
O‘zbekiston Respublikasi	104,3	104,5	115,7	107,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	116,2	117,6	130	102,9
Andijon viloyati	118,6	102,4	109,7	107,5
Buxoro viloyati	113	105,2	118,1	108
Jizzax viloyati	114,7	102,7	115,8	112,9

Hududlar	2015	2018	2021	2023
Qashqadaryo viloyati	115,3	103,5	122,3	107,6
Navoiy viloyati	117,7	104,4	122,3	103,9
Namangan viloyati	118,7	104,9	123,6	114,3
Samarqand viloyati	113,7	105,4	124,3	108,5
Surxondaryo viloyati	114,4	102	116,3	114,4
Sirdaryo viloyati	118,5	110	102,1	102,6
Toshkent viloyati	107,5	100,5	117,5	106,8
Farg‘ona viloyati	115,4	103,1	123,3	110,7
Xorazm viloyati	115	102,9	116,4	104,1
Toshkent shahri	106,5	113,4	113,3	116,3

Ijoby tendensiyalar: Toshkent shahri va Namangan viloyatida barqaror va yuqori o‘shish kuzatilgan. Buning sabablaridan biri sifatida ushbu hududlarda transport xizmatlari sifatining oshirilishi, yangi texnologiyalarning keng joriy etilishi va logistika infratuzilmasining yaxshilanishini ko‘rsatish mumkin. Elektrlashtirilgan yo‘llar ulushining oshishi butun mamlakat bo‘ylab iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Salbiy tendensiyalar: Sirdaryo va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilda iqtisodiy samaradorlikning sezilarli pasayishi kuzatilgan. Bu hududlarda transport infratuzilmasi va xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmagani kuzatilgan bo‘lishi mumkin.

Yuk tashish hajmining o‘shishi iqtisodiyotning transport sohasiga bo‘lgan talabining ortishini aks ettiradi. Yo‘lovchi tashish hajmining oshishi transport xizmatlarining sifatini yaxshilash va yangi yo‘nalishlarning joriy etilishi bilan bog‘liq. Transport xizmatlaridan tushgan daromadlarning ortishi iqtisodiy samaradorlikning yaxshilanishiga dalolat beradi. Elektrlashtirilgan yo‘llar ulushining oshishi ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Temir yo‘l transport tizimining samaradorligi asosan texnologik yangilanishlarga bog‘liq. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori texnologiyali transport vositalari ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirib, xizmat sifatini oshiradi. Masalan, Yevropada qo‘llanilayotgan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari temir yo‘l transportining tezligini 15–20 % ga oshirishga imkon berdi.

Logistika jarayonlarining samaradorligi transport tizimining iqtisodiy rentabelligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba asosida, raqamli logistika tizimlarini joriy etish xarajatlarni o‘rtacha 10–12 % kamaytiradi va tranzit vaqtini qisqartiradi.

Temir yo‘l transportining ekologik foydasi boshqa transport turlariga nisbatan yuqori, ammo bu borada yangi ekologik standartlar va yashil texnologiyalarni qo‘llash iqtisodiy samaradorlikka ijoby ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, Germaniyada “yashil energiya” asosida ishlaydigan poyezdlarning qo‘llanilishi bilan tizimning umumiy xarajatlari 8 % ga kamaydi. Demak, bizda ham ushbu tizimning qo‘llanilishi tizimidagi umumiy xarajatlar ulushini sezilarli darajada kamaytirishga asos bo‘ladi, deya olamiz.

Resurslarni tejash va oqilona foydalanish masalalari milliy va xalqaro tadqiqotlarda asosiy mavzu bo‘lib qolmoqda. Yoqilg‘i va energetika resurslarini tejash orqali transport tizimining samaradorligini oshirish mumkinligi amaliy tajribalar bilan tasdiqlangan.

Yuqoridagi natijalar O‘zbekiston sharoitida temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ilg‘or tajribalarni joriy etishning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarurati paydo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining temir yo‘l transport tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘shishni boshdan kechirdi. 2015–2023-yillar davomida yuk va yo‘lovchi tashish hajmi, shuningdek, elektrlashtirilgan yo‘llar ulushi doimiy ravishda oshib bordi. Ushbu muvaffaqiyatlar texnologik modernizatsiya, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va davlat siyosatining to‘g‘ri yo‘naltirilganligining natijasidir.

Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va logistika jarayonlarini optimallashtirishning ahamiyati katta. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va texnologiyalarni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali yanada samarali boshqaruv tizimlarini yaratish mumkin. Bundan tashqari, ekologik barqarorlik va yashil transport texnologiyalarini rivojlantirish O‘zbekiston temir yo‘l tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi, xizmat sifati va mijozlar talablariga javob beradigan innovatsion yechimlarning tatbiq etilishi temir yo‘l transport tizimini yanada raqobatbardosh qilish imkonini beradi. Xalqaro savdo hajmining oshishi va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida temir yo‘l tizimining o‘rni ortib borayotganini hisobga olgan holda, ushbu sektorni rivojlantirish strategiyalari ustuvor bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, 2024-yil yakunlariga oid “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hisobotlari asosida tahlillar shuni ko‘rsatadiki, infratuzilmalarni yangilash va transport tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar sezilarli natijalar bergan. Xususan, yangi elektrlashtirilgan yo‘llar ulushining 45,1 % ga yetgani va yuk tashish hajmining sezilarli oshishi davlat investitsiyalari va xususiy sektor ishtirokining ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonlarda resurslarni samarali taqsimlash va transport koridorlarini optimallashtirish orqali qo‘shimcha iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorligi yuk va yo‘lovchi tashish hajmi, infratuzilmaning texnologik rivojlanishi, energiya samaradorligi va investitsiyalarning oqilona taqsimlanishi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq. MDH mamlakatlari va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, raqamli boshqaruv tizimlari va ekologik barqaror transport texnologiyalari bu borada yetakchi yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Infratuzilmani modernizatsiya qilish: temir yo‘l transportida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish. Jumladan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va elektron logistika platformalarini rivojlantirish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatlarida infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun davlat investitsiyalarini oshirish.

Yashil transport texnologiyalari: ekologik barqarorlikni oshirish uchun yashil transport texnologiyalarini joriy qilish. Bu, ayniqsa, katta miqdorda yuk tashuvchi temir yo‘l transportida qo‘llanishi mumkin.

Mintaqaviy logistika markazlari: logistika xizmatlarini takomillashtirish maqsadida mintaqaviy transport markazlarini tashkil etish. Bu xalqaro savdo hajmini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Transport xizmatlari sifatini oshirish: xalqaro standartlarga mos keluvchi xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish. Xususan, yo‘lovchi tashish xizmatlarini sifat jihatidan takomillashtirish.

Tahlillarni kuchaytirish: transport tizimining har bir bo‘g‘inida iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va muntazam ravishda baholash uchun ilg‘or iqtisodiy model va uslublardan foydalanish.

Xususiy sektor ishtiroki: temir yo‘l transportida xususiy sektorni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish.

Ta‘lim va kadrlar tayyorlash: transport sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun oliy ta‘lim tizimiga zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy qilish.

Yuqoridagi xulosalar va takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshishi va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil bo‘lishi kutilmoqda.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. PF–158-son, 2023-yil 11-sentabr. <https://lex.uz>

2. Michael Porter. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, 1990. – pp. 45–62.

3. Peter Drucker. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper & Row, 1974. – pp. 34–50.

4. Marie-Christine Cormier. Sustainable Logistics and Its Environmental Impact. Canadian Journal of Transport Studies, 2021. – Vol. 10, №2. – pp. 45–68.

5. Grachev V.N. «Экономическая эффективность транспортных услуг: проблемы и решения». Журнал транспортных систем России, 2019. – №5. – с. 45–60.

6. Bazarbayev T.K. «Цифровые инновации в железнодорожном транспорте Казахстана». Kazakhstan Transport Review, 2020. – №4. – с. 24–38.

7. Abdullayev A.B. “Raqamli transformatsiya sharoitida transport tizimining iqtisodiy samaradorligi”. O‘zbekiston iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2021. – №3. – b. 45–58.

8. Ismoilov N.X. “Temir yo‘l transportida infratuzilmani modernizatsiya qilishning iqtisodiy samaralari”. Transport va logistika tizimlari, 2022. – №4. – b. 34–48.

9. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy sayti: <https://railway.uz>

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti: <https://www.stat.uz>

11. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy sayti: <https://mintrans.uz>

12. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy sayti: <https://mift.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**